

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2024 Vol. 4

tsuull.uz  
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 4

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[uzlc.tsuull.uz](http://uzlc.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nodir Jo'raqo'ziyev

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nodir Jurakuziev

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

### Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Dilafruz Satimova**

O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasida.....6

#### **Umida Mahmudova**

Raqamli texnologiyalar diskursi tarjimasida sun'iy intellekt ChatGPT va Google Translate tarjimon dasturlarining farqi.....23

#### **Zilola Tillabayeva**

Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....37

### Adabiyotshunoslik

#### **Orzigul Hamroyeva**

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi.....49

#### **Alimuhtor Muhtorov**

Nizomiy Ganjaviy siymosining milliy o'zlikni anglashdagi roli.....63

#### **Vəzufə Xudiyeva**

Azərbaycanda mövcud bibliografik ehtiyatlar sisteminin inkişafı.....76

#### **Kishin Xajiboyev**

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi.....87

### Tarix. Manbashunoslik

#### **Kemal Yavuz Ataman**

Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul.....101

### Sotsiologiya. Psixologiya

#### **Komil Kalanov**

Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi.....120

## CONTENT

### Linguistics

#### **Dilafruz Satimova**

Linguoculturological Study of Substandard Lexical units in  
Uzbek Literature and their Translation into English.....6

#### **Umida Mahmudova**

The Difference Between Artificial Intelligence ChatGPT and Google  
Translate in the Discourse of Digital Technologies Translation.....23

#### **Zilola Tillabaeva**

Types of Lexemes in the Karluk Dialects of Samarkand Region  
According to their form and meaning.....37

### Literature

#### **Orzigul Hamroeva**

The Structure of Abdurahmon Sa'di's Textbook "Practical and  
Theoretical Literature Lessons" .....49

#### **Alimukhtor Mukhtarov**

The Role of Nizami Ganjavi's Image in Understanding National  
Identity.....63

#### **Vazufa Khudieva**

Development of the Existing Bibliographic Resources System in  
Azerbaijan.....76

#### **Kishin Khajiboev**

The Expression of the Concept of man and nature in the plot of the  
novel "The shore that lost its river" .....87

### History. Source studies

#### **Kemal Yavuz Ataman**

Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest  
Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul.....101

### Sociology. Psychology

#### **Komil Kalanov**

A Historical and Socio-Cultural Description of the System of  
Religious Symbols.....120

## “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi

Kishin Xajiboyev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqola XX asr o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan Erkin Samandar va uning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani haqidagi fikrlar bilan boshlangan. Roman syujetidagi inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi tahlil etilib, shaxsiy mulohazalar aytilgan. Ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlarda tabiat va inson munosabatlari uyg‘unlik kasb etib, 70–80-yillarda faqat ekologiya emas, balki insoniyat o‘rtasidagi ma’naviy ekologiya ham buzilganligi misollar bilan ochiqdigan. Asardagi bosh qahramonlar Ganja, Aminov, Buva va insoniyat tomonidan toptalgan Amudaryo o‘rtasidagi munosabatlar ko‘rsatilgan. Erkin Samandar inson va tabiat muammosining chuqur ildizlarigacha kirib borishga intiladi. Bunga, asosan, insonlar va to‘rt un-surdan biri bo‘lgan suv (Amudaryo suvi), otlar jamoasidagi munosabatlarni badiiy tahlil qilish orqali erishganligi bir nechta tahlillar orqali berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *inson, tabiat, syujet, konsepsiya, suv, Amudaryo, Ganja, Meliqush, do‘stlik.*

### Kirish

Erkin Samandar XX asr o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan taniqli shoir va yozuvchidir. U yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror lirikasi va nasri ila o‘zbek xalqi ma’naviyatining rivoji uchun ko‘p xizmat qildi. E.Samandar Ch, Aytmatov, J.London, E.Xeminguey, S.Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari va Sh.Xolmirzayev, T.Murod, A.Muxtordek o‘zbek ijodkorlari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo‘rtib ko‘rinib turuvchi bir qirrasidir. XX asr o‘zbek nasrining 60-70-yillardan keyingi taraqqiyotini bu o‘ziga xos yozuvchi ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining shakllanishi, o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, avvalo, adabiyotga olib kirilgan hayot

<sup>1</sup>Xajiboyev Kishin Alisher o‘g‘li – o‘qituvchi, Urganch innovatsion universiteti.

**E-pochta:** kishinxajiboyev@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0000-8269-6395

**Iqtibos uchun:** Xajiboyev, K. A. 2024. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi”. *O‘zbekiston:til va madaniyat* 4: 87– 100.

materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir. Erkin Samandar adabiyotga Xorazm koloritini – o'zi tug'ilib o'sgan Xiva va u yerdagi Amudaryo va Polvonyop kanali suvlarining manzaralarini, xorazmliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini – dialektini olib kirdi. Bu xususiyat ko'proq yozuvchining milliy-mahalliy koloritga boy bo'lgan "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida ko'zga tashlanadi. Adib ijodining, xususan, romanning o'ziga xosligi, betakrorligi ham mana shu sabablardan kelib chiqqan.

Mavzuiy rang-baranglik asarning naqadar qimmatli ekanligini bildirib turadi. Erkin Samandar ijodini o'rganish davomida shu narsaga guvoh bo'lamizki, uning badiiyati mavzuiy ranginlikka intiladi va eng birlamchi o'rinni tarixiylik nuqtayi nazaridan yaratilgan asarlari egallaydi. Uning tarixiylik aks etgan asarlaridan biri mazkur romandir. Roman tarixda bo'lib o'tgan voqealar asosiga qurilgan. Roman haqida: "Sochma asarlari qatorida "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" nomi bilan o'rin olgan romani ham o'zida o'quvchini qiziqtiradigan, inson va shaxs masalasi haqida o'ylashga majbur etadigan, shuningdek, tabiat – inson munosabati, sadoqat, xiyonat, fidoyilik va xudbinlik tushunchalarining mohiyatini chuqurroq anglashga yo'l ochadigan asardir.

Mazkur roman voqealari bevosita tabiat bilan bog'liq bo'lgani bois yozuvchi asar mazmunini ochib berishda obrazlar, timsollar holatini yaratishda ko'pgina badiiy tasvir vositalariga murojaat etadi" [Sharipova 2020, 84], deydi yosh tadqiqotchi H.Sharipova. Bu so'zlardan "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani inson va tabiat munosabatlarini haqqoniy yoritib bergan roman sifatida yosh kitobxonlar ko'nglidan ham joy olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **Asosiy qism**

Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi [Quronov 2019, 119]. "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani ham shunday mukammal tarkibga ega. Uning ekspozitsiyasi birinchi qismning boshida beriladi. Ganja qamoqdan chiqib, Amudaryo qirg'oqlariga keladi va daryoni, sohilda daryosi va egasi tashlab ketgan kemani ko'rib, uzoq o'yga toladi. Besh yil oldingi hayotini bir-bir eslaydi. Yo'l-yo'lakay roman qahramonlari bilan birma bir tanishtirib o'tadi. Asarlarning voqealar ro'y beradigan joy, qahramonlar tasviri bilan boshlanishi, ya'ni ekspozitsiyaning asar boshlanishida berilishi badiiy asarlarga xos an'anaviy uslubdir. Romanda tugundan so'ng ekspozitsiya,

ya'ni ekspozitsiyaning kechiktirilgan turi ham beriladi. Asarda obraz darajasiga ko'tarilgan Meliqush, Qandim, G'irkovik kabi otlar kitobxonda katta qiziqish uyg'otadi. Asarning ikkinchi qismida muallif Qandimni kitobxon bilan tanishtiradi: *"Qandim Meliqushdan ikki yosh kichik. Ko'zlari kiyikning ko'zlaridek qop-qora. Tug'ilganida Buva uning ko'zlarini ko'riboq otini Shahlo deb qo'ymoqchi bo'ldi. Quljon ko'nmadi. Qishlog'imizda Shahlo ismli qizlar ko'p, xafa bo'lishadi, dedi. Uni to'qay guliga mengzab Qandim deb atashdi. Qandim mana endi yetildi. Uniyam, boshqasiniyam surgun qilmoqchi rais..."* [Самандаров 2009, 116]. Shu o'rinda ekspozitsiya va voqealar rivojining yonma-yon, ketma-ket kelganligiga guvoh bo'lamiz.

Yozuvchining ekspozitsiyadan foydalanishdagi alohida uslublaridan yana biri shundaki, muallif asardagi kichik qahramon, ya'ni ilmiy tilda epizodik obraz deb nomlangan epizodga ham ekspozitsiya keltiradi. Asar bosh qahramoni Ganjani onasining vafotidan keyin o'zini boqib olgan ammasi Anor xola haqidagi ekspozitsiya, tillafurush ayol Oltinoy opa haqidagi ekspozitsiyalar shular jumlasidandir. Mohira haqidagi tanishtiruv ijodkorning yana bir mohirona qo'llangan ekspozitsiyasidan darak beradi. Uning asar boshida bir qahramonga ishora berib, voqealar rivojida uni tanishtirib o'tishi o'quvchini o'ziga tortadi, qiziqtirib qo'yadi. Jumladan, Ganja ozodlikka chiqqanidan so'ng poyezdda bir qizil ko'ylakli qizni ko'rib qoladi, u bilan ikki og'iz gaplashadi. Qiz Ganjada yaxshi taassurot qoldiradi, ammo uning kimligini bilmaydi. Yechimdan oldin Ganja Aminov ishi bo'yicha Olimjon akaning uyiga boradi. U yerda o'sha poyezdda ko'rgan qizil ko'ylakli qizni uchratib, bir muddat o'zini yo'qotib qo'yadi. Shu payt uy egasi Olimjon aka, "Tanishing, bu mening qizim Mohira" degan gaplarni aytadi. Ko'rib turganimizdek, Erkin Samandarning ekspozitsiya yaratish mahorati o'ziga xos.

Ijodkor asar boshlanishi bilan ekspozitsiyaning o'zidayoq tabiat unsurlari haqida so'zlaydi, voqealar rivojiga ishora qiladi. Ozodlikka chiqqan Ganja eng avval Amudaryoning yoniga keladi. Uning oldingi g'ayrati yo'qligi, suvlari kamayib, sekin oqadigan bo'lib qolganidan kuyunadi. Xuddi shu yerda Ganja Amudaryoni sevgilisi Qumriga tanishtiradi: *"Bu Amudaryo. Amudaryoda loyqa suv oqadi. Loyqaning xosiyati ko'p, yerni sog' qiladi, Cho'milsang, tanagga yara-chaqa toshmaydi"* [Самандаров 2009, 14].

Roman tuguni ham o'ziga xos tasvirlanadi. Asosiy ekspozitsiyadan so'ng, tugunga navbat beriladi. Ganja mahkumlikdan qutulib, Amudaryoni ziyorat qiladi. Daryoning ahvolini ko'rib xafa bo'ladi. Qumri bilan nikoh kuni Amudaryodan suzib o'tgan katta guldor ke-

maning sohilda daryosiz, abgor yotgan holati uni yana alam, g'azab otiga mindirdi. O'tmishda boshidan o'tgan voqealar uni ezdi. Buning sababchisi Aminovga bo'lgan nafrati yanada oshdi. Yuragi gup-gup urib, isyon ko'targan tovushlarini chiqarib yubormaslik uchun tishini tishiga qo'ydi. Kema yonida o'yg'a tolib o'tirgan paytda uning oldiga bir mashina kelib to'xtadi: *"Gazik kelib sohildagi baland yo'l chekkasiga to'xtadi. Ruldagi odam atrofni kuzatdi. Kema ustida o'tirgan kishiga ko'zi tushdi. Saraton tig'ini pisand etmay bukchayib o'tirgan kimsa kim ekan. U mashinadan tushib, eshikni qars ettirib yopdi. Qo'lida kalitni o'ynagancha kema oldiga keldi. Ganja boshini ko'tardi. Ular bir-biriga uzoq tikilib qoldilar. Ganjani ko'rib Aminov dovdirab qoldi"* [Самандаров 2009, 17].

Ganja shu odamni deb 5 yil umrini qamoqda o'tkazdi. U xotini yo'ldan urdi. Do'sti Obodni pichoqlashi uchun uydirmalar to'qidi. Uni qotilga aylantirdi. Yana kelib hech narsa ko'rmaganday ko'ngil so'raydi. O'tgan ishga salovat, yonimga kelsang, ish beraman deb tilyog'lamalilik qiladi. Do'sting Obodni o'ldirganingni unut, u shunga loyiq edi deya o'zini oqlaydi. Bu qanday bedodlik. Axir Ganja sevgilisi Qumrini yo'ldan urgan Obod deb o'yladi. Aminov ekanligini sezmad. Shu tulki bilan Qumrining yolg'onlariga ishondi. Bu ham yetmaganidak, bu Aminov degani qamoqdan qaytgunicha Amudaryoni so'ndiribdi. Hamma joyni suv bostirib, hayvonot-u nabototning halokatiga sabab bo'libdi. Bu dahshatli o'ylar Ganjaning qonini qaynatdi. Aminov va uning gumashtalaridan, albatta, o'zining barbod bo'lgan hayoti uchun, toptalgan tabiat uchun o'ch olishini qalbiga tugdi va uyiga tomon ketdi. Bu romanning tuguni edi, ya'ni asar konflikti qo'yilgan joy.

Voqealar rivoji shu yerdan boshlanadi. Ganja o'z hayotiga qaytib, ishga kirishib ketdi. Kelib ammasi Anor opa va unda qolgan o'g'li Anvar bilan quchoqlashdi. Bu uy Qumrining kelinlik davrini eslatdi. U shahardagi uyiga borib, hamma joyni ko'zdan kechirdi. Qumri kundalik yozib yurar edi. Uni izladi. Tortmadan xat topdi. Uni Qumri yozgan edi. Xatda brilliant uzuk bilan zirakni egasiga qaytarishi yozilgan edi. Bu so'zlardan so'ng Ganja boshini changallab qoldi. Demak, Obod aybsiz. U o'limidan oldin qanchalik o'zini oqlagan edi-ya! Rashk Ganjaning ko'zlarini ko'r qilibdi. Endi nima bo'ldi, axir uning hayoti majruh bo'lib qoldi-ku. Uzuk va sirg'ani Qumrixonga kim bergan? Albatta, Aminov bergan. Endi uni o'sha o'zi quritayotgan daryoga cho'ktirmasa, bu hayotdan Ganjaning ko'zi ochiq ketadi.

Romanda kulminatsion nuqtadan oldin muallif bir oz lirik chekinish qiladi. Ganjaning ham vijdon azobi, ham qasos otiga min-

ganligi sababli g'azabini bosish uchun ruhiga madad olish uchun Xiva minoralari, gumbazlarini, madrasa-yu yodgorliklarni sayohat qiladi. Bu ruhga orom beruvchi sayohatni u quyidagi go'zal so'zlar bilan boshlab beradi: *"Havolanib ketsang qabristonga bor, mung va hazinlikni ko'rib hovuring bosiladi. Agar ruhing cho'kib ketsa daryoga bor, uning asov mavjlarini ko'rib, ko'ksing tog'day ko'tariladi. Lekin endi Amudaryoga ruh tushganida emas, balki yuraging toshib, bosar-tusaringni bilmay qolganingda borganing ma'qul. Daryoning mahzunligini ko'rib, ruhing chilparchin bo'ladi"* [Самандаров 2009, 172]. Shu sababli Ganja siniqqan ruhlariga madadni faqat Xivadan izlaydi. U Ichanqal'a, Kaltaminor, Feruz madrasasi, ko'hna Ark, Oq shayx bobo tepaligi, Pahlavon Mahmud maqbarasi kabi muqaddas joylarni ziyorat qilib chiqadi. Ushbu lirik chekinish orqali Erkin Samandar, o'zbekona qadriyatlarimizni ham ko'rsatib o'tgan. Daryo, tabarruk qadamjolar nafaqat inson ruhiyatini ko'taradi, Ganja boshlab turgan ishi oldidan ularni ziyorat qildi. Ularning oldida duo qilib Ollohdan ishlarining rivojini so'radi. Ganja tabiat dushmanlarining jazosini beradi. Unga, avvalo, Olloh, so'ngra ziyorat qilgan pirlarning ruhi madadkor bo'ldi. Mana o'zbekona mentalitetning ajoyib bir ko'rinishi.

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanining ekspozitsiyasi-yu voqealar rivoji, umuman, syujetning har bir qismida insonlar sabab mahzun holga kelgan daryo, majruhga aylangan ona tabiat tasviri obrazli tasvirlanadi. Bu roman qahramonlarining ruhiga, qalbiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Yuqoridagi parchada guvohi bo'lganimiz kabi Amudaryoning mung'ayib qolishi Ganjani juda qiynaydi, ruhan ezadi. Odamlarning o'z foydasini o'ylab, tabiatni shunday achinarli ahvolga solishi, uning vijdonini azoblaydi. Oldinlari hammaning ruhini ko'taradigan daryo, endi ruhiyatni chilparchin qiladigan daryoga aylanishi - bu Orol muammosidek global muammoning boshlanishi edi. Ko'rinadiki, inson va tabiat o'rtasidagi adolatsizlik, tengsizlik va zulmning ostida nafs balosi turibdi. Nafsning istagi bilan inson bolasi o'ziga tabiatni qul qiladi. Buning orqasidan qudratli kuchga ega bo'lmoqchi bo'ladi. Hayvonot va nabotot, umuman tabiat dunyosida esa chegara chizig'ini bosib o'tib bo'lmaydigan "qoida" bor. Bu qoida kuchlilar tomonidan kuchsizlarga hukmronlik va zulm qilish uchun qat'iy to'siq. Tabiat bilan bog'liq epizodlarda yozuvchi buni teran psixologizm asosida yetarlicha badiiy asoslaydi.

Voqealar rivojidan so'ng romanning kulminatsion nuqtasi keladi. "Kulminatsion nuqta, ya'ni badiiy konfliktning uchta turi

farqlanadi:

1. Xarakterlararo konflikt.
2. Qahramon va muhit konflikti.
3. Ichki (psixologik) konflikt” [Quronov 2019, 124].

Romanda konfliktning ushbu uch turi aralash keladi va o‘zaro uzviy aloqada bo‘ladi. Obod va Ganja o‘z muhiti bilan kurashga kirishgan qahramonlardir. Ularning muhit bilan ziddiyati esa uning Aminov bilan o‘zaro ziddiyatli munosabatlari fonida yetishadi, ayni shu munosabatlar qahramonlar ruhiyatidagi murakkab jarayonga – ongidagi o‘y-fikrlar kurashiga turtki beradi.

Ganja Qumrining halokatiga sabab bo‘lgani, yashab turgan ona tabiatga zulm qilgani uchun Aminov javob beradigan payt kelgan edi. Mazdubad bilan Qisnoq o‘rtasidagi kimsasiz joyda ular bir-biriga ro‘baro‘ keldilar. Ganja shu yerga kelganda chiday olmadi. Aminovni chalajon qilib do‘pposladi. Ikkisining yakkama yakkaga olishuvi romandagi tugunlarning yechimiga yetaklaydi. So‘ngra Ganja Qurbon Salayevning ishi bilan qiziqadi. Shunday aqlli, fidoiy, mehnatdan qochmaydigan halol odam nega endi bir umr qora nom bilan yashashi kerak? U Qurbon akaga nohaq qamalganini isbotlovchi dalillar to‘plashini, mas‘ullardan ishni qayta o‘rganishni talab qilish kerakligini aytadi va buning uchun o‘zi ham kurashadi. Natijada, Isroil raisning gaplari bilan qo‘shni Quljon Qurbon akaning uyiga ataylab qora dori tashlab ketgani, Qurbon akaga qo‘yilgan ayb uyushtirilgan ekanligini aniqlagan tergovchi Nazarov militsiya boshlig‘i tomonidan hiyla yo‘li bilan qamatib yuborilgani, Naysonbuva yodgorligini shogirdlarini chaqirib ta‘mirlagani uchun uni ishdan bo‘shatgan maktab direktoriga ham rais buyruq bergani tasdiqlanadi va Quljon bilan Isroil rais jazolanadi. Bu bilan “Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi”, degan hayot haqiqati o‘z isbotini topadi.

Qaysidir ma‘noda haqiqat qaror topadi. Ammo bosh qahramon Ganjaning ko‘ngli taskin topmaydi. Chunki Aminov, Isroil rais, Quljon kabi shaxslarning oxirini o‘ylamasdan, tepadagilarning buyrug‘ini so‘zsiz bajarib, o‘zi yashab turgan insonlarga, atrofini o‘rab turgan ona tabiatga qilgan xiyonati, zulmi bugungi kungacha o‘z ta‘sirini o‘tkazib kelmoqda. Tarixda yashab o‘tgan, chorizm ta‘sirida shunday qabihliklarga borgan manqurt kimsalar Amudaryo suvining kamayib, daryo orqali Orol dengiziga quyiladigan suvning keskin pasayib ketishi sababli dengizning qurishiga sababchi bo‘ldilar. Dengizning qurishi uning atrofida yashovchi xalqlar uchun, tabiat uchun qanchalik og‘ir falokatlar olib kelganligi bugungi kunda bar-chamizga ma‘lum. Qisqa qilib aytganda “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq”

romanida ko'tarilgan muammo bugun ham o'z yechimini topgani yo'q. Shu sababli Ganjaning ko'ngli hech taskin topmadi. Bu haqida D. Quronov shunday deydi: "Ko'plab asarlarda esa yechimdan so'ng ham ziddiyatlar, qahramonlar taqdiridagi chigalliklar hal qilinmaganicha qolaveradiki, bu o'quvchini o'ylashga, mushohada qilishga undaydi. Ya'ni bu holda tom ma'nodagi yechimning mavjud emasligi asarning ta'sir kuchini, o'quvchining ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi usulga aylanadi" [Quronov 2019, 123].

Erkin Samandar inson va tabiat muammosini chuqur ildizlarigacha kirib borishga intiladi. Bunga, asosan, insonlar va to'rt unsur dan biri bo'lgan suv (Amudaryo suvi), otlar jamoasidagi munosabatlarni badiiy tahlil qilish orqali erishadi. Fikrimizning isboti sifatida ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

### **Jamiyatdagi qonuniyatlarning buzilishi**

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar juda murakkab va muhimdir. Insonlar tabiatdan hayot uchun zarur resurslar: suv, havoni, oziq-ovqat va xomashyolarni olishadi. Biroq, insonning tabiatga ta'siri ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida inson va tabiat o'rtasidagi noxush munosabatlar ochiq ko'rsatilgan. Har bir inson tabiatni asrashi, undan oqilona foydalanishi, uning rivoji uchun harakat qilishi, tabiatga do'stona munosabatda bo'lishi kerak. Uning ustidan mutlaq hukmronlik qilishga hech kimning haqqi yo'q. Ammo roman voqealarida bu qonun buziladi. Odamlar tabiatdan noto'g'ri foydalanishadi. Uni istaganicha talon-taroj qilishadi, xo'rlashadi. Eng yomoni, bunga o'zini haqliman deb o'ylaydi. Albatta, bu nomaqbul ishlar ortida "Qachon nafs o'z komin etti havo, Qilur elni ko'p naf'din benavo" [Комилов 2005, 143] deganidek insonning nafsi turadi. Aminovdagi mana shunday yovuz tuyg'ularning rivojlanishi jamiyatga xos muvozanatning buzilishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, boshqarma boshlig'i Aminov va uning kirdikorlari faqat buyruqni bajaradi. O'z aqliga tayanmasdan boshqalarning aqli bilan ish qiladi. O'zga millat - ruslarning buyrug'i bilan o'z millatini yakson etadi. Boyliklariga xiyonat qiladi, daryo, tarixiy obidalar, yodgorliklarni toptaydi. Maqsadi shuki, boshliqlariga yaxshi ko'rinish, yaxshi mansab egasi bo'lish. Shu yo'lda Amudaryoni so'ndiradi. Buvaning otlarini Kiyikto'qayga haydab, suv ostida qoli-shiga sabab bo'ladi. Ammo bu dunyoda har bir aytilgan so'zning, qilingan ishning hisobi bo'lganidek, toptalgan tabiatning ham o'z yo'rig'i bor edi. Bu yo'riq tabiat o'ziga qilingan xiyonatni

javobsiz qoldirmasligidir. Amudaryo suvlaridan noto'g'ri foydalanish natijasida Orol dengizining qurishi tabiatning insonlarga bergan javobidir. Zero, "yer resurslaridan foydalanish suv resurslari hajmi bilan chambarchas bog'liq. Suv resurslari o'z navbatida tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, atmosfera havosini o'zgarib borishida muhim rol o'ynaydi" [Назаров 2004, 22].

### **Do'stlik masalasi**

Romanda Buva bilan otlar o'rtasidagi munosabat jonli tasvirlangan. Meliqush va G'irkovikning o'z to'dasi, Buva uchun qilgan e'tibori, mehribonchiligi qalblarni larzaga soladi. Ammo bu mehrga odamlar javob qaytara olmaydi. Ularning mehriga qahr bilan javob berishadi. Qorayantoqda traktor yo'q paytlari ekin-tikin ishlariga shu jonivorlar beminnat yordam bergan edi. Traktorlar kelishi bilan Isroil rais otlarni Kiyikto'qayga haydab yuborishni buyurdi. U yerda o'zlari yuradi, kerak bo'lganda olib kelamiz dedi. Buni eshitgan Buva dong qotdi. Qancha kurashmasin, otlar to'qayga haydaldi. Bunga chidolmagan Buva to'qayga borib otlar bilan yashadi. Qorda Buva yiqilib oyog'i lat yedi. Meliqush kelib Buvaga yelkasini tutdi. Uning tuzalib ketishini butun otlar kutdi. Tuzalavermagan Buva otlarni Meliqushga tayinlab qishloqqa keldi. Bir vaqtdan so'ng daryo suvini to'sish uchun qo'yilgan damba yorilib, tagidan suv chiqib ketayotganligi, tez fursatda to'qay suv ostida qolishi haqidagi xabarni eshitib Buva nafas ololmay qoldi. Tezda to'qayga jo'nadi. Momojon kampir Buva va otlariga yordam so'rab Isroil raisning oldiga bordi va uning asl basharasini ochib tashladi. To'qayga borib, otlarning ahvolini ko'rgan bobo juda xafa bo'ldi. Otlar ham Meliqush boshchiligida Buvaga tikilib turardi. Ular Buvadan xafa edi. Buva ularni biroz yolg'iz qoldirgani uchun bizdan butunlay voz kechib ketdi deb o'ylardi. Bu quyidagi parchada o'z aksini topadi. *"Meli, bu menman Buvaman. Bormisan, omonmisan jigar? Sizlarni qishloqqa olib ketgani keldim. Avvalgidek yana birga yashaymiz. Sizlarsiz Qorayantoq huvillab qoldi"* [Самандаров 2009, 157]. Bunga Meliqush shunday javob beradi: *"Meliqush pishqirib, yerni ikki marta tepdi. Bu yaxshilik alomati emas edi"*. Shunda Buva yana Meliqushni o'ziga chorlaydi: *"Axir bir-birlariga yov bo'lganlar ham xavf-xatar oldida birlashadilar-ku. Daryo bostirib kelyapti. Sen ham men ham suv ostida qolib ketamiz. To'qayda dodimizni eshitadigan kimsa yo'q. Faqat sen borsan, faqat men borman, o'lim oldida turgan mana shu otlar bor. Sen hamisha odamzotga qanot bo'lib kelgansan, odamzod hamisha senga mehr ko'rsatgan. To'g'ri, bizning kunlarga kelib bu odat buzildi. Lekin hozir arazning o'rnimi?"* [Самандаров

2009, 165]. Meliqush odamlardan qattiq ranjigan edi. U bir paytlar juda ham yaxshi ko'rgan Buvaga ham ishonmay qo'ygan edi. Ushbu kel- tirilgan parchalardan ko'rinib turibdiki insonlar va hayvonlar do'st tutinganida, hayvonlar do'stlikka hech qachon xiyonat qilishmaydi. Ammo odamlar haqida bunday deyish qiyin. To'g'ri, insonlar orasida ham hayvonot va nabotot olamini sevadigan Buva kabi, mehribon, fidoiy insonlar bor. Lekin hayvonlar bilan birgalikda bunday insonlar-da, Aminov singari do'stlikni qadriga yetmaydigan, faqat o'z foydasini o'ylab ish qiladiganlar tomonidan yanchiladi. Hayvonlar- ning insonlarga bir umrlik sadoqatli do'st bo'la olishini ushbu romandagi Meliqush va G'irkovik misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Romanda do'stlik uch xil ko'rinishda beriladi.

1. Insonlarning o'zaro do'stligi.
2. Inson va hayvonlar do'stligi.
3. Hayvonlarning bir-biri bilan do'stligi.

Insonlarning o'zaro do'stligiga Obod bilan Ganjaning do'stligini misol keltirsak bo'ladi. Ular oralariga Aminov bilan Qumri tushmaguncha haqiqiy do'st edi. Aminovning qabih istaklari ijrosini ta'minlash maqsadida Qumri tomonidan qilingan tuhmat gaplarga ishongan Ganja rashk olovida yonib, o'z do'stinining hayotiga zomin bo'ladi. Ularning do'stligi namunali yakun topmaydi.

Inson va hayvonlar do'stligiga Meliqush bilan Buvaning do'stligini kiritish mumkin. Hayotda befarzand o'tgan Buva Meliqushni o'z farzandidek yaxshi ko'radi. Meliqush ham Buvaga xuddi farzandi kabi g'amxo'rlik qiladi. Bu Meliqushning to'qayda oyog'i shikastlangan Buvani yengidan tishlab tortib uychaga olib kelishi, Buvaning yurishi uchun qorni kurab berishi, to'qay suv ostida qolib, butun tirik mavjudot cho'kayotgan bir paytda Meliqush kelib Buvaning cho'kmasligi uchun uni ko'tarib turish lavhalari o'quvchining ko'z yoshlarini tiyolmasligiga sabab bo'ladi. Ammo bu do'stlik ham yaxshilik bilan yakun topmaydi. Buva ularga aslo xiyonat qilmaydi, yoki ularga nisbatan bo'lgan mehri kamaymaydi. Lekin otlarni vahshiy insonlardan himoya qila olmaydi. Ularning qahraton qishda to'qayda xor-u zor bo'lishiga, bu ham yetmaganidek, suv tagida qolib nobud bo'lishiga to'sqinlik qila olmaydi. Xususan, ma'naviy qashshoq odamlar otlarning, Buvaning o'limiga sabab bo'ladi. Zeroki, "Biror ma'naviy qadriyat, axloqiy sifatni o'zlashtirmaslik, chinakam insoniy fojidadir" [Йўлдошев, Йўлдошева 2016, 12]. Bu insonlar mehr, jasurlik, fidoiylik kabi axloqiy sifatlarni o'zlashtirmagan edi.

Hayvonlarning bir-biri bilan do'stligi Meliqush va Sorburgut do'stlashuvida ko'zga tashlanadi. Meliqush Sorburgut yo'qligida

uning Jayrontepaga suyaklardan qurgan uyi bilan, bolalari uchun g'amlagan ovqatini tulkilardan asraydi. Sorburgut esa otlar galasini noxush voqealardan xabardor etadi, bo'rilardan qo'riqlaydi. Otlar cho'kib ketayotgan kuni ham Sorburgut qayerdandir paydo bo'ldiyu, Meliqushning bolasi Marjonni qutqarib, Adirtepagaga olib ketdi: *"Jayrontepa suv ostida qolgach, Sorburgut cho'kayotgan to'qay uzra g'azabnok aylandi. G'arq bo'lib borayotgan otlarni ko'rdi. Meliqushning ketidan qalqib-qalqib borayotgan Marjonga ko'zi tushdi. Shiddat bilan Marjonning tepasiga keldi. Zum o'tmay pastlab tushdi-da, panjalarini toychoqning belidan o'tkazib, uni suvdan ko'tarib oldi"* [Самандаров, 2009. 167]. Bu do'stlik haqiqiy do'stlik edi. Hayvonlarda shunday bir qoida bor. Ular kim bilandir do'st bo'ldimi, hech qachon unga ozor bermaydi. Uning manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadi.

### **O'zlikka bo'lgan sadoqat**

Aslida insonlarning bir-biriga, ajdodlariga va o'zligiga bo'lgan sadoqati barcha mavjudotlarga nisbatan ustun bo'lishi kerak. Chunki jamiki mavjudotlar ichida onglisi, eng aqllisi odamlardir. Afsuski, aksariyat hollarda bu qonuniyat ham buziladi. "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida otlar jamoasiga qarasangiz, ularning bir-biriga, to'dasiga, yor-do'stlariga bo'lgan sadoqati insoniyat sadoqatidan anchagina a'lo. Ular to'qayda qarovsiz, yolg'iz yashaganida bu xislat yanada oshadi. Ayniqsa, otlar sardori G'irkovik va Meliqush fitratida Aminov va Isroil rais sadoqatidan farqli o'laroq yaqqol namoyon bo'ladi. G'irkovik to'qayda ochlikdan, sovuqdan holdan toygan bir payt mart oyida to'qayda muz ko'chkisi sodir bo'ldi. Buvani va uyuridagi otlarni himoya qilayotgan Girkovikni toshday uchib kelgan muz qulatdi. Bundan Buva siqildi. *"Girkovikning o'lgani ko'p yomon bo'ldi. Usiz bechora otlarning holi ne kecharkin, uyurning ko'z qulog'i edi u... Qor kurab o'tlayotgan otlarni, ularning boshida Meliqush turganini ko'rib, Buva taskinlandi"* [Самандаров 2009, 132].

Guvohi bo'lganimizdek, Girkovikning o'limidan so'ng otlar uyurini boshqa bir aqlli ot boshqarishi kerak edi. Meliqush yosh bo'lsa-da, bu vazifani bo'yniga oldi. Shu kundan boshlab o'z uyurini himoya qila boshladi. G'irkovik muz ko'chkisida qolganida Meliqushning holatini ko'ring: *"G'irkovik... Xuddi o'zi. Tuyoqlari, yag'rini, sag'risi, yoli hammasi muz. Muzot daryoga orqasini o'girib, to'qayga yuz tutib turardi. Meliqush uni ko'rib kishnadi. G'irkovik javob berolmasligini u bilmasdi. Yana, yana cho'zib kishnadi. Buvaning yuragi ezildi"* [Самандаров 2009, 134]. Bu yoqda esa Qorayantoq vijdoni

hisoblangan Buvani to'qayga, Obodni asfalasohilunga, Ganjani qamoqqa yuborgan Aminov o'zidan xursand. U juda aqlli, unga hech kim teng kela olmaydi. Vatandoshlarining taqdiri, tabiatning ahvoli, o'zligiga sadoqat masalasi uni qiziqitirmaydi. Chunki Aminov Meliqush kabi emas. Girkovik va Meliqush singari o'z jamoasini, ularning kelajagini o'ylamaydi. Buning o'rniga u o'z mavqeyini, boyligni o'ylaydi.

Otlarni rais to'qayga haydashni buyurdi. Quljon tashlab ketgan otlar daryodan suzib o'tib, Kiyikto'qayga o'tishayotganidagi birdamligi kitobxonni hayratga soladi. Oldinda yo'l boshchi bo'lib G'irkovik bilan Meliqush suzdi. Otlar ularning orqasidan ergashdi. *"G'irkovik suzishni sekinlatdi. Uning horib qolganini Meliqush sezdi. Tezgina unga yetib oldi. O'ng yoniga o'tib, to'lqin qarshiligini o'ziga oldi. G'irkovik mamnun pishqirdi. Darmoni qochgan oyoqlarini yerga tirab turdi-da, dadil olg'a yurdi. Yag'rini suvdan ko'tarildi. Orqadagi otlar ham qirg'oqqa yaqinlashdilar"* [Самандаров 2009, 121].

Muallif parallel ravishda ifoda etgan otlar og'ir kunda bir-biriga yelkadosh bo'layotgan bir paytda, Quljon qo'shnisi Qurbon Salayevning uyiga raisning istagi bilan qoradori qo'yib chiqadi. Uning qamalib ketishiga sabab bo'ladi. Chunki Qurbon aka hali yodgorliklarimizni asrash, ta'mirlash kerak deb, hali Qirtepani portlatmaysizlar, bu tarixiy yodgorlik, mutaxassislarni olib kelib o'rganish kerak degan jiddiy talablari bilan amaldorlarga yoqmayotgan edi.

### **Inson va Amudaryo munosabati**

Romanning bosh g'oyasi insonlarning Amudaryo suvidan o'z nafsini yo'lida ayovsiz foydalanishidan boshlanadi. G'anijon Aminovning olti million kub suv sig'adigan to'rtta suv ombori qurishi, daryo suvini shu omborlarga tushirish uchun dambalar orqali bo'g'ilishi, daryo atrofida yashovchi insonlar uchun misli ko'rilmagan, ayanchli natijalarga olib keldi. Damba yorilib, Kiyikto'qay, Mazdubad tuz koni, Naysonbuva yodgorligi va yana bir qancha joylarni suv bosdi. Amudaryoning suvi maqsadsiz har tomonga yoyilib ketdi. Buning oqibatida Amudaryo mung'ayib qolgan ona kabi bo'lib qoldi. Uning suvi shu darajada kamayib ketdiki, Orol dengiziga suv tushmasligi natijasida dengiz quridi. "Orolning qurib ketishi faqatgina uning atrofida joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston emas, butun dunyo iqlimiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun Orolni saqlab qolish dunyo ahamiyatidagi muammodir" [<http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1534/1928>]. Bu mudhish voqelarning

barchasi inson nafsi sabab sodir bo'ldi. Albatta, "Qilmish, qidirmish" deganidek insonlarning bu qilmishlari javobsiz qolmadi. "Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bundan yarim asr muqaddam Orol dengizida o'rta hisobda 1082 kub kilometr hajmda suv mavjud bo'lib, maydoni 68 ming kvadrat kilometrga teng bo'lgan. Hozir bu maydon 10, suv hajmi esa 15 barobarga kamayib, Orolning sathi 29 metrga tushib ketdi. Suvning uchdan bir foizini tuz tashkil qiladi. Shu sabab yashash uchun bunday noqulay iqlim sharoitida 20 xildan ziyod baliq turi yo'qolib ketdi. Dengizning qurigan tubidan yiliga 100 million tonnadan ziyod qum, chang-tuz yuzlab, minglab kilometr masofalarga uchib boradi. Katta daryo o'z qirg'og'ini tashlab ketdi" [Usmonov 2021, 6- 7]. Shu tariqa romanda ma'naviy tanazzulga uchragan odam hayvonotdan ham tuban tushishi, zulm qilingan tabiat odamlardan ayovsiz o'ch olishi haqidagi roman konsepsiyasi yuzaga qalqib chiqadi. Roman o'z kitobxonlarini inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni buzmaslikka da'vat etishi bilan ulkan ma'naviy-axloqiy ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa**

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida inson va tabiat muammosi Aminov bilan Amudaryo obrazlari orqali tasvirlangan. Muallif Aminovning qo'g'irchoq rahbarligini unga xos ichki yovuzlik tuyg'usi bilan ifodalagan. Amudaryo obrazi misolida to'lqinlanib, erkin oqqan daryoning insonlar tajovuzidan so'ng mushfiq ona kabi mung'ayib, sekinlashib qolishi ko'rsatilgan. Odam va daryo xarakteridagi nozik nuqtalarni tasvirlash orqali inson va tabiat muammosini fojiviy tartibda psixologik asoslagan. Umuman, Erkin Samandar ushbu romani orqali o'z o'quvchisiga tabiatning ulkan falsafasini anglatgan. Ayni paytda nafsi bilan yashaydigan jonivor (otlar), his-hayojonni tushunmaydigan Amudaryo hech kimga yomonlik qilmay, adolat muhitida kun kechirishi, aql-idrok berilgan inson esa adolat chegaralarini buzishi haqidagi salmoqli roman konsepsiyasini ilgari surgan.

### **Adabiyotlar**

- Sharipova, H. 2020. "Daryosini yo'qotgan qirg'oq romanida ijodkorning peyzaj yaratish mahorati". *"O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. Toshkent: Tadqiqot.
- Quronov, D. 2019. *Adabiyot nazariyasi*. Darslik. Toshkent: Noshir.
- Самандаров, Э. 2009. *Файб қушлари*. Тошкент: Шарқ.
- Комилов, Н. 2005. *Хузр чашмаси*. Тошкент: Маънавият.

- Назаров, А. 2004. *Табиатдан фойдаланишнинг экологик-географик асослари (Наманган вилояти мисолида)*. Филол. фанл. номз. диссертацияси. Тошкент.
- Йўлдошев, Қ., Йўлдошева. М. 2016. *Бадий таҳлил асослари*. Тошкент: Университет.
- <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1534/1928>
- Usmonov, H. 2021. *Atrof-muhit muhofazasi dolzarbligi kuchaymoqda. Yangi O'zbekiston. 17-sentabr, 186-son.*
- Imomova, G. M. 2021. *O'zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijod-korning poetik kontsepsiyasi*. Qarshi Universitet nashriyoti.
- Davronova, Sh. 2019. *Istiqlol davri O'zbek romanlarida Sharq va G'arb an'analarining badiiy sintezi*. Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti.

## **The expression of the concept of man and nature in the plot of the novel "The shore that lost its river"**

Khajiboev Kishin<sup>1</sup>

### **Abstract**

The article presents thoughts on Erkin Samandar, who made a great contribution to the development of 20th-century Uzbek literature, and his novel "The shore that lost the river". The expression of the concept of man and nature in the plot of the novel is analyzed, and personal comments are made. In elements such as exposition, node, development of events, culmination, resolution, the relationship between nature and man is harmonious, and it is explained with examples that in the 70s-80s not only ecology, but also the spiritual ecology of humanity was disrupted. The relationship between the main characters in the work, Ganja, Aminov, Buva, and the Amudarya, which was trampled by humanity, is shown. Erkin Samandar seeks to penetrate the deep roots of the problem of man and nature. It is shown through several analyses that he achieved this mainly through an artistic analysis of the relationship between people and one of the four elements, water (Amudarya water), in the team of horses.

**Key words.** *Man, nature, plot, concept, water, Amu Darya, Ganja, Melikush, friendship.*

---

<sup>1</sup>*Kishin A. Khajiboev* – teacher, Urgench Innovative University.

**E-mail:** kishinxajiboyev@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0000-8269-6395

**For citation:** Khajiboev, K. A. 2024. The expression of the concept of man and nature in the plot of the novel "The shore that lost its river". *Uzbekistan: Language and Literature* 4: 87 – 100.

## References

- Sharipova, H. 2020. Daryosini yo'qotgan qirg'oq romanida ijodkorning peyzaj yaratish mahorati. *"O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. Toshkent: Tadqiqot.
- Quronov, D. 2019. *Adabiyot nazariyasi*. Darslik. Toshkent: Noshir.
- Самандаров, Э. 2009. *Файб қушлари*. Тошкент: Шарқ.
- Комилов, Н. 2005. *Хизр чашмаси*. Тошкент: Маънавият.
- Назаров, А. 2004. *Табиатдан фойдаланишнинг экологик-географик асослари (Наманган вилояти мисолида)*. Филол. фанл. номз. диссертацияси. Тошкент.
- Йўлдошев, Қ., Йўлдошева, М. 2016. *Бадий таҳлил асослари*. Тошкент: Университет.
- <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1534/1928>
- Usmonov, H. 2021. "Atrof-muhit muhofazasi dolzarbligi kuchaymoqda". *Yangi O'zbekiston*. 17-sentabr, 186-son.
- Imomova, G. M. 2021. *O'zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijodkorning poetik kontseptsiyasi*. Qarshi Universitet nashriyoti.
- Davronova, Sh. 2019. *Istiqlol davri O'zbek romanlarida Sharq va G'arb an'analarining badiiy sintezi*. Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti.